

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.10.2024.Ped.187.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**KUTLIMURATOVA NARGIZA RUSTAMOVNA**

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING PEDAGOGIK G‘OYALARI ASOSIDA  
TALABALARDA MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical science**

**Kutlimuratova Nargiza Rustamovna**

Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g‘oyalari asosida talabalarda  
ma’naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirish metodikasi ..... 3

**Кутлимуратова Наргиза Рустамовна**

Методика развития духовно-нравственных качеств у студентов  
на основе педагогических идей Хусайна Ваиза Кашифи ..... 23

**Kutlimuratova Nargiza Rustamovna**

Methodology for developing students’ spiritual and moral qualities  
based on the pedagogical ideas of Husayn Vaiz Kashifi ..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 50

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.10.2024.Ped.187.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**KUTLIMURATOVA NARGIZA RUSTAMOVNA**

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING PEDAGOGIK G‘OYALARI ASOSIDA  
TALABALARDA MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped3991 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzfi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Xajiyeva Maksuda Sultonovna</b> pedagogika fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Kiyamov Nishon Sadikovich</b> pedagogika fanlari doktori(DSc), professor <b>Narzikulova Dilnoza Xoshimjonovna</b> pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Buxoro davlat pedagogika instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.2024.Ped.187.01 Ilmiy kengashning 2025-yil « 8 » noyabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140100, Samarqand shahar, Spitamen shoh ko'chasi 166-uy.) Tel.: (+99895) 324-24-18; e-mail: devonxona@uzfi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20383 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140100, Samarqand shahar, Spitamen shoh ko'chasi 166-uy.) Tel.: (+99895) 324-24-18;.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 23 » oktabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 23 » oktabr ) dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).



**A.A.Ibragimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash raisi,  
p.f.d. (DSc), prof.

**E.A.Abdumannatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi,  
p.f.f.d. (PhD).

**Sh.Sh.Negmatova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
Kengash qoshidag ilmiy seminar  
raisi, fal.f.d. (DSc), prof.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida jamiyat hayotini yangilash va qayta qurish tizimini tubdan isloh qilishda yosh avlodning ta'lim va tarbiyasini yuksaltirishda axloq antropologiyasining pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, tabiiyki, Husayn Voiz Koshifiyning ma'naviy-axloqiy va pedagogik-didaktik qarashlarini chuqur va har tomonlama o'rganish yoshlarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida o'tmishdagi va bizning zamonamizdagi ta'lim va tarbiyaning milliy xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Husayn Voiz Koshifiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari bugungi kungacha o'zining ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab kelayotgan bir qator pedagogik g'oyalarning o'ziga xosligi va qimmatligi bilan ajralib turadi, ularni o'rganish va qo'llash, shubhasiz, mustaqil O'zbekistonning zamonaviy pedagogika fanini yanada boyitadi. Husayn Voiz Koshifiy aynan ta'lim va tarbiya insonning ongli hayotini tashkil etishning muhim vositasi ekanligini, aynan ta'lim va tarbiya insonlar hayotini yanada mazmunli, maqsadli va baxtli qilishini ta'kidlagan va targ'ib qilgan, bizningcha, bu bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan betakror tarbiya nazariyasi hisoblanadi.

Jahonda nufuzli universitet va ilmiy tadqiqot institutlarida Husayn Voiz Koshifiy ilm-fanni puxta egallash, ilm-ma'rifat asosida inson hayotini farovonlashuvi, bilim va atrof-muhitga ta'sir darajasi, aqliy qobiliyatlari, muloqot madaniyati, insonparvarlik, tinchlik va hamjihatlikka intilishi, vatanparvarlik, odob-axloq va boshqalar bilan bog'liq qarashlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Olib borilgan mazkur tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, allomaning bu g'oyalari jamiyat va uning a'zolarining rivojlanishini ta'minlaydigan zamondoshlarning ta'lim va tarbiyasi olib borilishi kerak bo'lgan o'ziga xos qonuniyat va qoidalarni oldindan belgilab beradi. Uning ana shu ilg'or g'oyalari o'zbek xalqi milliy pedagogik tafakkurining yanada rivojlanishiga asos bo'ladi, shuningdek bugungi ta'lim va tarbiya g'oyalarining rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

Mamlakatimizda Husayn Voiz Koshifiyning ma'naviy-axloqiy va pedagogik-didaktik qarashlari xususan ta'lim jaroyanga tadbiiq etilishi va o'zbek xalqi milliy pedagogik tafakkuri rivojini o'rganish bilan shug'ullangan olim va tadqiqotchilarning maxsus tadqiqoti ob'ektiga haligacha aylangani yo'q. Shu boisdan allomaning ma'naviy merosi va pedagogik qarashlarini yanada izchil hamda chuqurroq o'rganish, qayta tiklash zarurati tug'ilgandek tuyuladi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatimizda yangi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi jarayonida kadrlar tayyorlash va tarbiyalash muammolari alohida ahamiyat kasb etdi. Zero, har bir shaxs (ijtimoiy subekt) hayotida ijtimoiy hayotning yangilanishi va rivojlanishi jarayonida ta'lim va tarbiya omili muhim, hatto, balki hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu borada xalq pedagogikasini ushbu muhim shakllantirish ishiga jalb etgan holda ta'lim va tarbiyani pedagogik qo'llab-quvvatlash alohida o'rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqishga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon, 2022-yil 10-fevraldagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-126-son qarori, 2019-yil 8- oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF 5847-sonli Farmoni va qarorlari hamda mavzuga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari, ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy qarashlari va oliy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmununi takomillashtirish muammolari P.Sh.Aleuova, N.E.Azimova, M.E.Axmedova, D.A.Axatova, Z.B. Axrorova, D.U.Atadjanova, N.A.Irgasheva, K.J.Nosirov, G.V.Izbullaeva, M.S.Salaeva, A.D.Rahimova, Z.T.Salieva, Ya.A.Nurumbekova, R.Sh.Rustamova, K.Y.Qilichyeva, Ch.A.Sabirovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Husayn Voiz Koshifiyning adabiy-pedagogik merosini o‘rganish o‘rta asr Sharq jamiyati tarbiyasi va tarbiyasining ko‘p qirralarini batafsil o‘rganishda muhim ilmiy-metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. XV asrning ko‘zga ko‘ringan axloqshunoslaridan biri sifatida Koshifiy o‘z qarashlarida insonning nafaqat ichki dunyosini ochib beradi, balki uni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash borasida amaliy tavsiyalarni beradi. Uning ijodini o‘rganishga ko‘plab taniqli olimlarni e’tibor qaratgani bejiz emas, albatta. Chunki allomaning yosh avlod tarbiyasiga oid pedagogik merosi sharq, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining keyingi avlodlari adabiy-pedagogik tafakkuriga ulkan ta’sir ko‘rsatganligini isbotlovchi muhim tarixiy dalillar mavjud. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ijodini o‘rganish uning hayotlik chog‘idayoq amalga oshirilgan. U haqida jamoat arbobi, vazir Alisher Navoiy, tarixchi Xondamir, yozuvchi va shoirlar Fahriddin Ali Safo, Abdulla Kobuliy, Xoja Xalif, Muhammad Suraya, Mirzo Safo va boshqalar muhim fikrlarni qayd etib o‘tganlar. Bu mutafakkirlar o‘z asarlarida Koshifiyning hayot yo‘li va adabiy-pedagogik faoliyatining ayrim jihatlarini tahlil qilishga harakat

qilganlar, ayni paytda uning poetik va nasrning adabiy g'oyalarining ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratganlar.

Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosini ma'naviy-axloqiy va pedagogik nuqtai-nazardan tadqiq qilgan olimlar jumlasiga A. Qayumov, Q. Munirov, X.M. Lutfillaev va boshqalarni kiritish mumkin. Biroq Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy, pedagogik, psixologik va falsafiy ta'limotlari bo'yicha tadqiqotlarning barcha ahamiyati bilan mutafakkir merosini o'rganishni to'liq deb bo'lmaydi, chunki uning pedagogik ta'limotining ko'p jihatlari hali hanuz munozaraliligicha va o'zbek olimlari tomonidan kam o'rganilgan sohaligicha qolmoqda.

O'zbekistonda Husayn Voiz Koshifiyning hayot yo'li va adabiy-pedagogik faoliyatining ayrim jihatlari, alloma gumanistik g'oyalarining ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-madaniy ahamiyati, alloma asarlari vositasida talabalarda ma'naviy sifatlarni shakllantirish masalalari N.Komilov, H.Homidiy, M.Hasaniy, A.Boboxonov, X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva, X.Abdullayev, B.Ahmedov, M.Quronov, X.Lutfillayev, M.Salayeva, M. Ashurova kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH davlatlari olimlaridan R.Rahmon, M.Davlatov, O.Yastrebova, M. Solehov, X.Qayumova, N.Muhammadxo'qa, K.Badoye, G.Tadjibayeva, A.Salixov, G.Iskandarovalar Husayn Voiz Koshifiyning hayoti va ijodiy yo'li, tarjimai holi, falsafiy va ijodiy faoliyatining ayrim jihatlari yoritishda bir tomonlama yondashilgan holda xulosalar chiqarishgan.

Yevropalik olimlardan Dj. Trimingem, K.Sands, A.Loewen, M.Subtelny, K.Mitchell. P.Lory, S.Tourkin, K.Sands, L.Golombek kabilar tomonidan Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy taraqqiyoti; temuriylar sulolasi hukmronligi davrining umumiy va o'ziga xos xususiyatlari; ushbu davr mutafakkirlari, jumladan, Husayn Voiz Koshifiy tomonidan ilgari surilgan ma'naviy -axloqiy konsepsiyalar umumiy tarzda o'rganilgan.

Husayn Voiz Koshifiy ma'naviy-axloqiy qarashlarining metodik mazmun-mohiyatini hisobga olgan holda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishning muhim ahamiyatga egaligini hisobga olib, biz dissertatsion ishimizda allomaning pedagogik g'oyalari asosida talabalar ma'naviy-axloqiy jihatlari rivojlantirish metodikasini tadqiq etdik.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Urganch davlat universitetini 2017-2030-yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalari asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy jihatlari rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy-pedagogik qarashlarining metodik imkoniyatlarini aniqlash;

Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalari asosida ta'limni tashkil etish modelini takomillashtirish;

Husayn Voiz Koshifiyning ta'lim va tarbiyaga oid axloqiy g'oyalarini dars jarayoniga tadbiiq etish metodikasini takomillashtirish;

Mutafakkirning pedagogik g'oyalarini zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish metodikasining samaradorligini aniqlashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti.** Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalari asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirish jarayoni bo'lib, tajriba-sinovda Urganch, Buxoro hamda Qarshi davlat universitetlaridan jami 552 nafar talaba ishtirok etdi

**Tadqiqot predmeti.** Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalari asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirishning ilmiy-amaliy nuqtai-nazardan o'rganish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan adabiyotlar tahlili, kuzatuv, umumlashtirish, so'rovnom, test, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy-pedagogik qarashlarining metodik imkoniyatlari allomaning pedagogik qarashlariga negizida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarni bugungi kun talablari rakursida o'rganish va global aspektdagi tadqiqotlar mohiyatidagi dominant ilmiy mulohazalarni retrospektiv tahlil usulida nazariy tavsiflash asosida aniqlashtirilgan;

Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalari asosida ta'limni tashkil etish modeli mutafakkirning adolatli jamiyat, odil shoh, odob-axloqli farzand, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etishning shakl, uslub va metodik aspektlari hamda talabalarning ma'naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirishning didaktik vositalariga gorizont va vertikal integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

Husayn Voiz Koshifiyning ta'lim-tarbiyaga oid axloqiy g'oyalarini dars jarayoniga tadbiiq etish metodikasi talabalar improvizatsion faoliyatini (fikr, dunyoqarash, ijodiy jarayonlar) rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari, didaktik va metodik komponentlariga kognitiv va pragmatik yondashuvlar orqali integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

mutafakkirning pedagogik g'oyalaridan zamonaviy ta'limda foydalanishni metodik imkoniyatlari dars jarayoniga uzviylik va izchillik tamoyillari asosida foydalanishning samaradorlik darajalarini baholash mezonlari (avtokompetentlik, reflektivlik, kommunikativlik) tajriba-sinov ishlarining faktlarga asoslanganligi, faktlarning esa aniqligi, ilmiy asoslanganligi va nazariy qoidalar bilan statistik ma'lumotlari orqali aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, usullar va ilmiy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, ishonchli dalillardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiyalar va u haqdagi taqrizlar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda

joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy ta'limoti va pedagogik g'oyalari haqidagi ma'lumotlarni iste'molga kiritish, uning ilmiy-ijodiy merosini jamiyat, omma orasida, xususan, barkamol avlod tafakkuriga yetkazish, uning ma'rifiy, ta'limiy, didaktik, axloqiy g'oyalarni ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohasiga keng tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda berilgan nazariy umumlashmalar, tahliliy xulosalar va metodik tavsiyalar ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini modernizatsiya qilishda, shuningdek, "Umumiy pedagogika", "Pedagogika tarixi", "Pedagogik mahorat" va "Oila pedagogikasi" fanlari bo'yicha zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallar yaratishda qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqotda ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot faoliyatini tashkil etishda, yoshlar bilan ishlovchi ijtimoiy-pedagogik markazlar, profilaktika xizmatlari va madaniy-ma'rifiy muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy dasturlarni takomillashtirishda qo'llash uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalari asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar asosida:

Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy-pedagogik qarashlarining metodik imkoniyatlari allomaning pedagogik qarashlariga negizida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarni bugungi kun talablari rakursida o'rganish va global aspektdagi tadqiqotlar mohiyatidagi dominant ilmiy mulohazalarni retrospektiv tahlil usulida nazariy tavsiflash asosida ochib berishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar "Umumiy pedagogika va psixologiya" darsligi mazmuniga singdirildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 333-178-raqamli guvohnoma); natijada, bu taklif va ilmiy-metodik tavsiyalar Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik qarashlari asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish jarayonini optimallashtirish imkonini berdi;

Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalari asosida ta'limni tashkil etish modeli mutafakkirning adolatli jamiyat, odil shoh, odob-axloqli farzand, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning shakl, uslub va metodik aspektlari hamda talabalarning ma'naviy-axloqiy jihatlari rivojlantirishning didaktik vositalariga gorizont va vertikal integratsiyalash asosida takomillashtirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar "Pedagogika nazariyasi va tarixi" (faoliyat turi bo'yicha) darsligi mazmuniga singdirildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 68-875-raqamli guvohnoma); natijada bu taklif va ilmiy-metodik tavsiyalar Husayn Voiz Koshifiyning gumanistik g'oyalari asosida talabalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini berdi;

Husayn Voiz Koshifiyning ta'lim-tarbiyaga oid axloqiy g'oyalarini dars jarayoniga tadbiiq etish metodikasi talabalar improvizatsion faoliyatini (fikr, dunyoqarash, ijodiy jarayonlar) rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari, didaktik va metodik komponentlariga kognitiv va pragmatik yondashuvlar orqali integratsiyalsh asosida takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar "Umumiy pedagogika va psixologiya" darsligi mazmuniga singdirildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 333-178-raqamli guvohnoma). Natijada bu taklif va ilmiy-metodik tavsiyalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik merosidan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qildi;

mutafakkirning pedagogik g'oyalaridan zamonaviy ta'limda foydalanishni metodik imkoniyatlari dars jarayoniga uzviylik va izchillik tamoyillari asosida foydalanishning samaradorlik darajalarini baholash mezonlari (avtokompetentlik, refleksivlik, kommunikativlik) tajriba-sinov ishlarining faktlarga asoslanganligi, faktlarning esa aniqligi, ilmiy asoslanganligi va nazariy qoidalar bilan statistik ma'lumotlari orqali aniqlashtirishga doir tavsiyalar "Pedagogika nazariyasi va tarixi" (faoliyat turi bo'yicha) darsligi mazmuniga singdirildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 68-875-raqamli guvohnoma); Buning natijasida o'quvchilarda axloqiy-huquqiy ong, ijtimoiy faollik, ijodiy fikrlash, tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyatlari, pedagogik faoliyatga tayyorlik kabi kompetensiyalarning rivojlanishi ta'minlandi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 2 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 3 tasi xorijiy jurnallarda, 3 tasi respublika konferensiyalarda va 3 tasi xorijiy konferensiyalarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, 8 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanadi. Mazkur bob 3 paragrafdan iborat. Bunda Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida, Husayn Voiz Koshifiy pedagogik merosi asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning fundamental negizlari, talabalarda huquqiy-axloqiy me’yorlarni shallantirishda Husayn Voiz Koshifiy pedagogik merosidan foydalanishning arxetip imkoniyatlari xususidagi mulohazalar yo‘ritilgan.

Kamoliddin Husayn Voiz ibn Ali Koshifiy (1442–1505) nomi XV asrning ko‘zga ko‘ringan olimlari, jamoat arboblari va adiblaridan biri sifatida ko‘p tilga olingan. Bobda, mutafakkirning, qomusiy aql-zakovatga ega bo‘lganligi, u hayotlik chog‘laridayoq “axloq muallimi” sifatida keng shuhrat qozonganligi bayon etiladi. Shuningdek, u o‘zbek va tojik adabiyotining atoqli namoyandasi, notiqlik san’ati nazariyotchisi va amaliyotchisi, mutafakkir va ilohiyotchi olim sifatida tanilgan. Tadqiqotda Husayn Voiz Koshifiy ilm-fanning turli sohalariga chuqur qiziqib kelganligi, har tomonlama barkamol olim sifatida shuhrat qozonganligi ham izohlanadi. Mutafakkirning yuzdan ortiq asarlari ko‘plab, axloq, tilshunoslik, siyosat, din tarixi, voizlik, she’r san’ati, astronomiya, falsafa, etika va boshqa fan sohalariga bag‘ishlanganligi izohlanadi. Bular quyidagilardan iborat: “Axloqi Muhsiniy”, “Risoiat Xotamiya”, “Anvori Suxayliy”, “Futuvvatnomai Sultoniy”, “Tavsiri Husayniy”, “Javohirnoma” asarlaridir.

Ishda, Husayn Voiz Koshifiy pedagogik merosi asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlariga alloma yaratgan pedagogik tizimni amaliyotga tatbiq etishning optimal yo‘llari va tashkiliy shakllari kiradi. Uning fikricha, odob-axloqni madh etish so‘z va amallarni isloh qilish (tozalash)dan iborat. Alloma “Anvori Suhayli” asarida odob va yoshlar tarbiyasiga doir muhim qarashlarni ilgari suradi. Xususan, u odobni ezgulik, go‘zal axloq sifatida ulug‘lab, odob otadan o‘g‘ilga, ajdodlardan-avlodlarga meros bo‘lib qolishini ta’kidlagan. Kimda odob bo‘lmasa, u suhbatga loyiq emas. Yaxshi xulq-atvor va odob-axloq tarbiyasi murakkab va ko‘p mehnat talab qiladigan ish bo‘lib, doimiy harakatni talab qiladi. Insoniy xulq-atvorni tarbiyalashga doimo e’tibor qaratish jamiyatning har bir a’zosining sharafli burchidir. “Axloqi Muhsiniy” asarida esa odobni tavsiflab shunday deydi: “Adabning ma’nosi yomon so‘zdan befoyda ishdan nafsni tiyish, o‘zining hamda boshqa kishilarning izzatini saqlab, obro‘yini to‘kmaslikdir. Haqiqiy adab barcha ishlarda Risoiatpanoh (s.a.v.)ning sunnatiga rioya qilishdir. Al-adab xayrun az-zahab (Adab – oltindan yaxshiroq):

Adab ganjiga yetmas ganji Qorun,  
Bo‘lolmas ham tengi mulki Faridun”.

Husayn Voiz Koshifiy ta’lim-tarbiya haqida fikr yuritib, hayotning mazmuni insonning barcha kuch va qobiliyatlarining o‘zgarishi va mutanosib rivojlanishida degan xulosaga keladi.

Alloma odob-axloqqa oid asarlarida avval biror so‘z yoki tushunchani izohlab, unga o‘quvchi amal qilishi uchun naqliy va aqliy dalillar keltiradi. Olim

B.Abdusalimovning “Axloqi Muhsiniy” asariga “So‘zboshi”sida tavsiflanishicha, naqliy dalil Qur’oni karim oyatlari va Hadisi sharifdan keltirilgan rivoyatlar, aqliy dalil esa biror axloqiy qoidaga amal qilishga doir mantiqiy xulosalardir. Bizningcha, bu allomaning asarida ta’lim-tarbiya metodini qo‘llash ketma-ketligini tashkil etadi. Ya’ni, avval mavzuni tavsiflash, so‘ngra unga naqliy va aqliy dalil keltirish bilan o‘quvchida o‘zlashtirilgan bilimga mos motivatsiya va ishonch-e’tiqodni hamda amaliy yo‘nalganlik pozitsiyasini hosil qilishga intiladi. Buni bilimlarni uzatishning Husayn Voiz Koshifiyga xos tashkiliy-metodik tizimi deb hisoblash mumkin. U o‘z ma’naviy tarbiya, ijtimoiy burch, kamtarlik, sabr va e’tiqod kabi qadriyatlarni singdirishning aniq usullarini taklif etadi. Koshifiy axloqiy tarbiyada ko‘proq ibrat, namunaviy shaxslar hayoti, diniy-axloqiy rivoyatlar orqali ta’sir qilish usulidan foydalangan. Tarbiya jarayonida yosh avlodni ulug‘ shaxslar namunasi asosida shakllantirish asosiy metod sifatida ilgari suriladi. Husayn Voiz Koshifiy o‘zining tarbiya metodlarida qadimiy islom ma’rifatining asosiy axloqiy tushunchalaridan- odob-axloq, hayo, adolat, jasurlik, halollik kabi insoniy fazilatlarni chuqur tahlil qilgan.

Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy ta’limoti “Axloqi Muxsiniy”, “Risolai Xotamia”, “Anvori Suxayliy”, “Axloqi Karim”, “Lubob-ul ma’naviy fi-intixobi”, “Javohirnoma” kabi asarlarida yoritilgan bo‘lib, ularda ilm-ma’rifatga intilish, o‘z ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash ustida ishlash yo‘llari belgilab berilgan. Manbalardagi ma’lumotlarga tayangan holda, alloma yaratgan pedagogik tizimga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm)

Alloma yaratgan pedagogik tizim	
Maqsad	• Komil inson tarbiyasi
Mazmun	• Axloqiy, diniy, hikmatli bilimlar
Metodlar	• Nasihat, namuna, qissa, timsol
Vositalar	• Asarlar, hadislar, hikmatlar
O‘qituvchi	• Donishmand, murshid (yo‘l ko‘rsatuvchi)
O‘quvchi	• Ilmga chanqoq, odobli, sabrli shaxs
Natija	• Ma’naviy-axloqiy komillikka erishgan shaxs

### 1-rasm. Alloma yaratgan pedagogik tizim

Husayn Voiz Koshifiy ta’lim-tarbiya haqida fikr yuritib, hayotning mazmuni insonning barcha kuch va qobiliyatlarining o‘zgarishi va mutanosib rivojlanishida degan xulosaga keldi. U chinakam inson hayoti va baxt-saodat manbaini ana shu yuksak insoniy fazilatlarda ko‘radi:

1) u insonni har tomonlama kamol toptirish masalasiga jiddiy ahamiyat beradi;

2) vatanparvarlik va vatan himoyasi fuqaroning eng muqaddas burchi bo‘lib, Koshifiy davrida vatanni himoya qilish va uni ajnabiylar tajovuzidan asrash asosiy

masala hisoblangan, Koshifiy asarlarida bu masalaning tilga olinish ajdodlar vatanparvarligini ta'kidlash uchun muhim vosita bo'lib, alloma vatanparvarlikni insonning hikmatli axloqiy sifati ekanini e'tirof etadi.

3) adolat tamoyilining talablaridan biri mazlumlar ovozigacha quloq solish;

4) davlat siyosatida xalq ishtirok etishi kerak, demak yoshlar huquqiy bilimlarga ega bo'lishi zarur;

5) haqiqiy adolati mamlakatga ko'plab sayyohlar va sayohatchilar tashrif buyuradilar, sayyohlik zamonaviy mamlakatlar uchun katta daromad manbaidir. Albatta, zamonaviy davrda sayyohlarni jalb qilish uchun yaxshi jihozlangan muassasalar, ya'ni yo'llar, mehmonxonalar, ko'ngilochar markazlar, davolovchi maskan va diqqatga sazovor joylar bo'lishi zarur;

6) inson kamolotida ta'lim-tarbiya muhim o'rin tutadi, bilimli va odobli yoshlar taraqqiyot asosidir. Jamiyat huquqiy tarbiyaga ega bo'lishi zarur, nodonlar bilimli bo'lmaguncha, barcha hikmat va haqiqat yo'llariga kirmaguncha huquqiy tarbiyani kuchaytirish kerak.

Mutafakkir ta'limotida mehnat qilish huquqi insonning eng muhim huquqlari va axloqiy fazilatlaridan biri bo'lib, u har bir inson uchun bir necha jihatdan foydalidir. Avvalo, mehnatsevarlik insonning hayotdagi obro'-e'tiborini oshiradigan eng muhim axloqiy fazilatlardan biri bo'lib, bu bilan birga inson taraqqiyoti ham inson mehnati va uning natijalariga bog'liq. Mehnat insonni baxtli qiladi. Alloma mehnatni ulug'laydi, uni yurt obodligi, xalq baxtini asosi deb biladi.

Allomaning fikricha, ayniqsa, dehqonlarning mehnatini qadrlash kerak, chunki ular jamiyatning barcha qatlamlarini boqadi, o'zlari ekib, o'radilar va xalqni boqadilar.

Asrlar davomida allomaning quyidagi fikrlari Markaziy Osiyo xalqlari uchun huquqiy jamiyat fuqarosini tarbiyalash, qonun ustuvorligi, vatanparvarlik va mehnatsevarlik tarbiyasining asosi bo'lib kelgan

Shunday qilib, Husayn Voiz Koshifiyning ma'naviy-axloqiy konsepsiyasi umuminsoniy huquqiy g'oyalar va yetik qonunlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, talabalarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni shakllantirishda Husayn Voiz Koshifiy pedagogik merosidan foydalanishning arxetip imkoniyatlarini qo'llash allomaning pedagogik merosni bilish va amaliyotda qo'llash kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Husayn Voiz Koshifiy pedagogik merosidan foydalanishning metodik mexanizmlari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda buyuk Sharq mutafakkirlarining boy pedagogik merosini har tomonlama o'rganish, ularning ta'limiy g'oyalarini chuqur tahlil qilish, shuningdek, ularning pedagogik asarlaridagi axloqiy tamoyillarni inobatga olish orqali ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish va shu orqali ta'lim sifatini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Sharq allomalaridan Husayn Voiz Koshifiyning axloq metodikasida ishontirish tarbiyaning asosiy usullaridan biri bo'lib, uni xulq-atvor me'yorlarini tarbiyalashda eng yaxshi natija beradi, deb biladi. U yoshlarda yaxshi xulq-atvor me'yorlarini tarbiyalashda rag'batlantirishning rolini yuqori baholaydi. Allomaning fikricha, rag'batlantirish yoshlarni keyingi muvaffaqiyatlarga

ilhomlantiradi, o'ziga ishonchni mustahkamlaydi. Yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan rag'batlantirishning insonga psixologik ta'siri juda katta. Intizom tarbiyasi masalalari nafaqat Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik qarashlarida o'z aksini topgan, balki amaliy faoliyatida ham qo'llanilgan. Koshifiy ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasida suhbat metodining yoshlar tarbiyasidagi ta'sirini yuksak baholaydi:

So'z agar bo'lsa g'araz birla tamadan xoli,  
Gar desan toshqa ani qilur albatta asar.

Husayn Voiz Koshifiyning uqdirishicha, suhbat yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan birga, ularda mehnasevarlik, mehnatkash xalqqa hamdardlik, bekorchilarga, mehnat qilmay, birovning mehnati evaziga kun kechirayotganlarga nisbatan nafrat tuyg'ularini uyg'otardi.

Husayn Voiz Koshifiyning yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun o'z asarlarida diniy ilmlarni naqliy dalillash uchun yunon, arab va ajam mamlakatlari tarixiy qissa va rivoyatlarini aqliy dalil sifatida taqdim eta olishdan foydalanadi. U bunday aqliy dalillar asosida yunon donishmandlari, Eron va turk hukmdorlari, arab xalifalari haqidagi ibratli hikoyatlardan qissadan hissa tarzida ibratli xulosalar chiqaradi. Qur'oni karim, Hadisi sharifdan oyat va hadislar keltirib, ularni sharhlab tushuntiradi.

Bugungi kunda talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash borasida oliy ta'lim muassasalarida ustoz-shogird munosabatlarini mustahkamlash uchun mutafakkirning ma'naviy merosi zarur manba bo'la oladi. Chunonchi, Koshifiy ijodida ta'lim beruvchi ustoz va ta'lim oluvchining odobi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Ularda yoshlar rioya qilishi lozim bo'lgan axloq-odob qoidalari birma-bir bayon qilingan. Husayn Voiz Koshifiy pedagogik qarashlarini oliy ta'lim tizimida ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlariga tatbiq etish uni innovatsion va axborot texnologiyalar asosida modellashtirish zarurdir.

O'quv jarayonida talabalarning malaka va ko'nikmaga ega bo'lish qobiliyatlarini shakllantirishda mutafakkirining inson bilim orqali komillikka erisha olishi, haqiqatini bilishiga qat'iy ishonish kerakligi hamda inson tinimsiz mehnat, tirishqoqlik tufayligina bilim va ilm egallashi mumkin degan g'oyalarini ma'ruza va seminar darslarda tadbiq etish mumkin.

Husayn Voiz Koshifiyning ma'naviy-axloqiy g'oyalarini talabalarga aqliy faoliyat usullari orqali singdirishda xarakteri, mantiqiy yo'nalishi, olinadigan natija shakli, fikr yuritish tipiga ko'ra quyidagicha tasniflangan usullaridan foydalaniladi:

1. Xarakteriga ko'ra: reproduktiv (Tayyor bilimlarni yod olish va qayta aytish. Koshifiyning hikmatlarini yod olish, mazmunini tushuntirish), ijodiy (Mustaqil fikr yuritish, yangi g'oyalarni ilgari surish. Koshifiy g'oyalarini zamonaviy hayotga tatbiq etish.), qiyosiy (Turli manbalarni solishtirish, o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilish).

2. Mantiqiy yo'nalishiga ko'ra: induktiv (kichik misollar asosida umumiy xulosaga kelish. Masalan, Koshifiy asarlaridan ayrim hikmatlarni tahlil qilib, ularning umumiy ma'naviy xulosasini chiqarish.), deduktiv (umumiy qoidani misollarda ko'rsatish. Ma'naviy tamoyillarni alohida voqealar orqali ko'rsatish), analogik (o'xshashlik asosida fikr yuritish. Koshifiy g'oyalarini boshqa mutafakkirlar bilan qiyoslab tahlil qilish.)

3. Olinadigan natija shakliga ko‘ra: nazariy (fikrlar, xulosalar, tushunchalar. Talabalar Koshifiyning g‘oyaviy qarashlari haqida nazariy mulohaza yuritadilar.), amaliy (hayotga tatbiq etish, Koshifiy g‘oyalarini zamonaviy ijtimoiy muammolarga tatbiq qilish), baholovchi (tahlil va baholash, Koshifiyning axloqiy qarashlarini hozirgi yoshlar hayoti bilan solishtirib baholash).

4. Fikr yuritish tipiga ko‘ra: tahliliy (analitik ) (ma‘lumotlarni tahlil qilish. Koshifiy asarlarining g‘oyaviy qatlamini ochib berish), sintetik (turli fikrlarni birlashtirib yangi xulosa chiqarish.), tanqidiy (mavjud qarashlarni tahlil qilib, ularning to‘g‘riligi yoki kamchiliklarini aniqlash.), ijodiy (yangi g‘oyalar, shaxsiy fikrlar yaratish).

Bunday aqliy faoliyat usullarining tarkibiga kiruvchi o‘quv faoliyati usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quv faoliyatini rejalashtirish ko‘nikma va malakalari: o‘quv topshiriqlarini anglash, maqsadni belgilash, unga erishish uchun optimal va samarali yo‘llarini, faoliyatning bosqichlari va davomiyligini aniqlash, faoliyat algoritminini topish, mustaqil ish rejasini tuzish;

- o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etish ko‘nikma va malakalari: o‘z o‘quv faoliyatini tashkil etish, o‘quv adabiyotlari va jihozlarining mavjudligi, talabaning ulardan foydalana olishi, gigiyenik talablarga javob beradigan sharoit yaratish, ish rejimini tashkil etishi, uy vazifalarini mustaqil bajarishni tashkil etish;

- axborotni qabul qilish ko‘nikma va malakalari: turli axborot manbalari ustida ishlash, matn tuzish, bibliografik izlanish olib borish, ma‘lumotnomalar bilan ishlash, axborotni diqqat bilan tinglash va yozish, diqqatini boshqarish, kuzatish va eslab qolish;

- fikr yuritish faoliyati ko‘nikma va malakalari: o‘quv materialining mazmunini anglash, asosiy g‘oyani ajratish, tahlil qilish, sintezlash va aniqlash, tasniflash, umumlashtirish, dalillash, hikoya, hisobot, ma‘ruza tuzish, xulosalar ishlab chiqish, muammolarning yechimini topish;

- o‘z o‘quv faoliyati natijasini anglash va baholash ko‘nikma va malakalari: o‘quv faoliyati natijasini anglash, o‘z-o‘zini va o‘zaro nazorat qilish, muammo yechimining to‘g‘riligini aniqlash, hodisalarga turli jixatdan baho berish, nazariy va amaliy ko‘nikmalarning to‘g‘riligi va mustahkamligini tekshirish, shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va nazorat qilishi kabilar.

Husayn Voiz Koshifiyning komil insonni tarbiyalashga oid g‘oyalarini yangi innovatsion texnologiyalar asosida amaliyotga tatbiq etishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:


- talabalarining Husayn Voiz Koshifiy pedagogik g‘oyalarining mazmunini eslab qolish funksiyasini yaxlitlik va tizimlilikka tayanib amalga oshirish;

- Husayn Voiz Koshifiyning asarlari orqali o‘zlashtirib olingan bilimlarning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o‘tish;

- allomaning pedagogik qarashlaridagi ma‘lumotlarni taqdim etishdan o‘qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan shakliga o‘tish kabilar.

Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g‘oyalari asosida talabalarda ma‘naviy-axloqiy jihatlarni rivojlantirish modelini (2-rasm) ta‘lim jarayoniga joriy qilishdan

asosiy maqsad Koshifiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish tizimining metodik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.



2-rasm. Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalari asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirish modeli

Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik asarlarini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlar mutafakkirga butun umri davomida hamroh bo'lgan. U odob-axloq, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, shaxsni shakllantirish va takomillashtirish muammolariga e'tibor qaratgan. Alloma "yoshlarda faollik va mehnatga intilish, o'z-o'zini anglash, xayrixohlik, namunali xulq-atvor, notiqlik, matonat, sabr-toqat, ilm-fanni puxta egallash, chidamlilik, yuksak axloq, bunyodkorlik va boshqa insoniy ezgu fazilatlarini rivojlantirishga chaqirgan".

Yuqoridagi ta'limiy va tarbiyaviy komponentlarni rivojlantirishda biz uch xil ta'lim metodlarini taklif qilganmiz. Shulardan biri, "Besh unsur" metodi bo'lib, u quyidagi natijalarga olib keladi:

- axloqiy, tarbiyaviy va madaniy qadriyatlarni chuqur anglash, shuningdek, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va refleksiya qobiliyatlarini rivojlantiradi;

- ta'lim, tarbiya, axloq, ma'naviyat va madaniyat kategoriyalariga xos asosiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam beradi;

- o'z tanlovlarini tasniflash va asoslash, analitik fikrlash hamda mavhum g'oyalarni real hayotdagi kontekstlar bilan bog'lash qobiliyatini rivojlantiradi;

- munozara bosqichida faol tinglashni, turli fikrlarni hurmat qilishni, o'z nuqtai nazarini ifoda etish va himoya qilish qobiliyatini, kommunikativ va hamkorlik asosida ishlash ko'nikmalarini oshiradi;

- ta'limiy, tarbiyaviy, axloqiy, ma'naviy, madaniy unsurlarning integratsiyasi orqali axloqiy-estetik kompetensiyalar rivojlantiradi, intellektual o'sishni, axloqiy fikrlashni va hamkorlikda o'rganishni rag'batlantiradi.

Dissertasiyaning uchunchi bobi, "**Oliy ta'lim muassasalarida Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalaridan foydalanishning samaradorlik darajasi**" deb nomlangan bo'lib, mazkur tajriba-sinov ishlari, 3 ta viloyatning oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Urganch davlat universiteti talabalarida o'tkazildi. Unda tajriba guruhida 280 nafar va nazorat guruhida 272 nafar, jami 552 nafar talabalar ishtirok etdi. Erishilgan natijalar statistik tahlil qilindi. Tajriba eksperiment olib borishda quyidagi bosqichlar asosida tajriba amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari 3-bosqichda, ya'ni aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda Urganch davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti hamda Qarshi davlat universitetlarida amalga oshirildi.

Aniqlovchi bosqich: Ushbu bosqichda talabalar o'rtasida ma'naviy-axloqiy g'oyalar va Koshifiyning pedagogik merosi haqida dastlabki ma'lumotlar to'plandi. Talabalarining mavjud bilim va ko'nikmalarini aniqlash maqsadida so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi.

Shakllantiruvchi bosqich: Bu bosqichda Koshifiyning g'oyalarini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayoni olib borildi. Talabalarga maxsus darslar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Ular o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash orqali ma'naviy-axloqiy g'oyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Yakuniy bosqich: Yakuniy bosqichda tajriba-sinov jarayonining natijalari tahlil qilindi. Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni baholash uchun testlar va baholash mezonlari ishlab chiqildi. Natijalar asosida olingan ma'lumotlar, tajriba guruhidagi talabalar ma'naviy-axloqiy g'oyalarini rivojlantirish darajasini ko'rsatdi.

